



Tadqiqot.uz




# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI:  
2018-2023

## INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA



ÖZBEKİSTON RESPUBLİKASI VA XORİYU OLY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-OOTTUNCHILAR, YOSH DULMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA KOTORORLU TABALAR

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN ELEKTR BATAREYA



TOSHKEKT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TADQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



MAY  
№52

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
7-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-7**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Янги Ўзбекистон: Иновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]**

“Янги Ўзбекистон: Иновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 52-кўп тармоқли илмий масоғавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 58 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараккиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси мувоғик – илмий изланиш ютукларини амалиётта жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга багишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат килиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуклар, натижалар, муаммолар, очимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараккиётининг истиқболдаги режалари таҳтил килинган конференцияси.

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.**

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.и. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳмамалқосим ўели (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуритаги Таълим сифатини назорат қилини давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда туттани ўрини**

Доцент Уришбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна «Тараккиёт стратегияси» маркази мухаррири

**6.Журналистика**

Тошибоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

<b>1. Rasulova Zarifa, Alimkhanova N.A</b>	
AMERICAN ENGLISH AS AN INTERNATIONAL LANGUAGE .....	7
<b>2. Xolmatov Islomjon G'ulom o'g'li, Nasrullayev Sanjar Narzullayevich</b>	
KASB-HUNAR MAKTABLARI O'QUVCHILARI UCHUN HORIJUY TIL VA ADABIYOT DARSLARINING TUTGAN O'RNI VA AIAMIYATI .....	9
<b>3. Djumambetova Gulziba Kongratbaevna</b>	
THE DIFFERENCE BETWEEN TERM AND WORD: THE PROBLEM OF INTERPRETER AND TRANSLATOR AND THE ROLE OF TEACHING TERMINOLOGY .....	11
<b>4. Немаилов Муродбек Мансурович</b>	
ЗАИМСТВОВАНИЯ КАК РЕЗУЛЬТАТ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ .....	13
<b>5. Курбонова Нилуфар, Ашурова Дилжаром</b>	
ЯЗЫКОВАЯ ИГРА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ .....	16
<b>6. Курбонова Нилуфар, Ашурова Дилжаром</b>	
ЯЗЫКОВАЯ ИГРА НА УРОВНЕ ДЕВИАЦИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ .....	18
<b>7. Amangeldieva Arazgúl Saparamanova</b>	
"ER-SHORA" DÁSTANINDA ANTONIMLERDIŃ QOLLANILIW ÖZGESIELIGI .....	20
<b>8. Joldashaeva Aynurá</b>	
THE CONCEPT, HISTORICAL DEVELOPMENT AND SIGNIFICANCE OF DISTANCE LEARNING .....	22
<b>9. Jumakulova Shakhnoza Kudrat kizi</b>	
DESCRIPTION OF ILLOCUTIONARY ACT'S TYPES IN ENGLISH .....	25
<b>10. Rasulova Zarifa, Alimkhanova N.A</b>	
WHAT IS ENGLISH GRAMMAR? .....	26
<b>11. Qutliyeva Muhayyo G'ulomovna, Sanoqulova Munisa</b>	
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES .....	28
<b>12. Mirzayeva Muhayyo</b>	
CHET TILINI URGANIŞIDA MALAKA VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHI USULLARI .....	30
<b>13. Бабаева Гулназа Латижоновна</b>	
МАИШИЙ ТИББИЙ ДИСКУРС ХУСУСИДА .....	32
<b>14. Бабаева Гулназа Латижоновна</b>	
МАИШИЙ ТИББИЙ ДИСКУРСДА ПСИХОЛИНГВИСТИК МУЛОКОТ .....	35
<b>15. Sharipova Dilnoza Shavkatovna, Jalolova Aziza Ikramovna</b>	
THE ROLE OF GIVING AND RECEIVING EFFECTIVE FEEDBACK .....	39
<b>16. Sharipova Dilnoza Shavkatovna</b>	
THE STUDY OF THE SYMBOL IN LINGUISTICS AND SEMIOTICS .....	42
<b>17. Qudratova Adolat Tursunovna</b>	
YUZNI TANIB OLISH TEKNOLOGIYASINING AFZALLIKLARIqil .....	45
<b>18. Худоев Омон Турсунович</b>	
ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎРГАНИШДА АКТДАН ФОЙДАЛАНИШИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ .....	47
<b>19. Shermatova Bahora Isoqul qizi</b>	
ILG'OR O'QITISH JARAYONIDA PROFESSIONAL TARJIMA MALAKASI .....	49
<b>20. Dilsufa Abdusalamova</b>	
LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH NUMERALS IN ENGLISH .....	52
<b>21. Pardayeva To'xtatosh Farmonovna</b>	
ONA TILI FANINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI, STRATEGIYALARI .....	54
<b>22. Джалилова У.И.</b>	
К ВОПРОСУ О ЗНАЧЕНИИ ПОЛИСЕМИИ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ НАУКЕ .....	56



## CHET TILINI URGANISHDA MALAKA VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mirzayeva Muhayyo  
Buxoro davlat universiteti,  
Fakultetlararo chet tili kafedrasi o'qituvchisi  
Mobile: 98-914155001

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qish va eshitib tushunish malakalari ayrim-ayrim olingan til ishoralarida emas, balki bog'langan yozma va og'zaki nutq namunalarida – yozma yoki ovoz yozilgan mavzularda shakllanishi mumkinligi va chet tillarini o'rganish jarayoni yanada takomillashgan ayni bir paytda chet tilini o'qitishning mazmuni talabalarining og'zaki nutq, o'qish, yozish va tinglab tushunish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish hodisalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** so'z boyligini sintez qilish, tushunish, til signallari, gapirish, o'qish, yozish, tinglash, ko'nikmalar, qobiliyatlar, murakkablik, hodisa, aloqa tahlili, jarayonlar.

Hozirgi chet tillarini o'rganish jarayoni yanada takomillashgan ayni bir paytda chet tilini o'qitishning mazmuni talabalarining og'zaki nutq, o'qish, yozish va tinglab tushunish malaka va ko'nikmalarini o'stirishdan iboratdir. Og'zaki nutq va o'qish shakllanadigan tematikani hisobga olmay, til materiali xususiyatini aniqlash, shuningdek, malaka va ko'nikmalarni oshirish murakkab hodisalardan hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun aloqa jarayonlarining tahliliga murojaat etamiz. Til ishoralari ishtirokida amalga oshiriladigan har qanday tildagi aloqa muayyan axborot, ma'lumot olish va berish maqsadini ko'zlaydi, shuning uchun ko'pgina modellar va so'zlarni ularning mazmuniga qarab, fikr yuritilayotgan mavzuga muvosiqlashtirib muayyan guruhlarga ajratish mumkin [1]. O'z ona tilisida barcha mavzularga doir axborot berib, axborot olish hamma uchun ham oson emas, albatta. Kishi aloqa olib bora oladigan mavzularning miqdori uning hayotiy tajribasi, ma'lumoti, ilmiy darajasi, unvoni kabilarga bog'liq.

Shunga ko'ra, chet tilida aloqa qilishga o'rgatishda bu aloqa mavzularini hisobga olmay bo'lmaydi. Butun bir qator ishoralar faqat muayyan mavzuda aloqa qilishda qatnashishi, shuningdek, chet tilini o'rganishga ajratilgan vaqtning cheklanganligi hisobga olinadigan bo'lsa, bu o'quv fanini o'qitishda o'qish olib boriladigan mavzular doirasini aniq belgilash zarurligi ayon bo'ladi. Aytilganlardan o'qitishning mazmuniga og'zaki nutq va o'qish mavzulari kirishi kerakligi ma'lum bo'ladi.

O'qish va eshitib tushunish malakalari ayrim-ayrim olingan til ishoralarida emas, balki bog'langan yozma va og'zaki nutq namunalarida – yozma yoki ovoz yozilgan mavzularda shakllanishi mumkin. Tajribadan ma'lumki, matnlarni tanlash va ularning xususiyati o'qish yoki eshitib idrok etish malakalari xususiyatiga katta ta'sir qiladi. Bularning barchasi yozma yoki ovoz yozilgan matnlarni ham o'qitish mazmunining tarkibiy qismi tarzida qarashga majbur etadi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, metodika bo'yicha chiqarilgan barcha qo'llanmalarning mualliflari chet tili o'qitishning mana shu xususiyatiga asoslanib, matnlarni o'qitishning mazmuniga kiritmoqdalar [2].

Chet tili o'qitish mazmunining yana bir tarkibiy qismi milliy tillarda bo'lмаган muayyan til tushunchalaridan iboratdir. Ma'lumki, turli til tizimlari turlichadir, ularda har bir tilga xos bo'lган grammatic va leksik hodisalar mavjud. Masalan, rus tilida barcha maktablarda o'rganiladigan G'arbiy Yevropa tillariga xos bo'lган artikl degan grammatic hodisa hamda uni aks ettiradigan grammatic tushunchaning o'zi yo'q. Bu hodisani, uning nutqida qo'llanilishini o'rganish jarayonida o'quvchilarda artikl haqida aniq tasavvur shakllanadi. Til materialini o'rganish jarayonida o'quvchilarda artikl haqida aniq tasavvur shakllanadi. Til materialini o'rganish jarayonida o'quvchida o'rganilayotgan tilga xos bo'lган qator tushunchalar shakllanadi. O'qitish mazmunini belgilab olar ekanmiz, tabiiyki, o'quvchilarda shakllanadigan tushunchalarni ham nazarda tutishimiz kerak bo'ladi. Aytilganlardan o'rganilayotgan tilga xos bo'lган, biroq milliy ona tilida bo'lмаган muayyan tushunchalarni ham o'qitish mazmuniga kiritish maqsadga muvosiqligi ayon bo'ladi.

O'qitish mazmunining tarkibiy qismlarini aniqlagach, bu mazmunni tanlashimiz zarur bo'ladi [3]. Metodika tarixi mobaynida o'qitish mazmunini tanlash masalalari umumiy tarzda emas,



balki mazmunning ba'zi qismlariga nisbatan, birinchi navbatda lug'atga nisbatan hal etilganini uqtirish qiziqarlidir, chunki o'qitish mazmunining ana shu qismida til ishoralari, ayniqsa ko'p bo'ladi. XIX asrning oxiri XX asrda tilshunoslikning barq uring rivojlanishi munosabati bilan chet tilini o'qitish mazmunini tanlash muammosi, ayniqsa, avj oldi. XX asrda grammatik material va matnlar tanlashga urinib ko'rishlar sodir bo'ladi. Ana shu davrda o'qitish mazmunini tanlashning ba'zi umumiylasalalari, jumladan, "passiv" va "aktiv" til materialini tanlash muammosi hal qilina boshlaydi. Shunday qilib, o'qitish mazmunini tanlash muammosi dastlab mazmunning ba'zi qismlariga nisbatan hal etilib, keyinchalik esa umumiyl yo'sinda tadqiq qilina boshlaydi.

Og'zaki yoki yozma fikrdan axborot olishda esa holat o'zgacha bo'ladi. Bu o'rinda aloqa qatnashchisi aloqa jarayonida hamrohi izmida bo'ladiki, bu hamroh tinglayotgan yoki o'qiyotgan kishiga biror til ishorasini go'yo majburan qabul qildiradi. Ko'p kishilar bilan aloqa qilib turishimiz sababli fikrni tushunish uchun axborot berish bilan birga til ishorasi yig'indisini bilishimiz kerak. Til kommunikatsiyasining bu xususiyati faqat chet tilidagina emas, balki ona tilida ham kuzatiladi. Masalan, A.A.Bulaxovskiy rus (ona) tilida biz tushunadigan "passiv" leksika mavjud, ammo biz undan o'z nutqimizda deyarli foydalanmaymiz, deb ko'rsatadi [4]. Aktiv leksika o'z fikrini bayon etish uchun zarur, passiv leksika esa o'zgalarning fikrini bilib olish uchun zatur bo'lib, til materiallarini farq qilish yig'indisi ancha cheklangan miqdorda bo'lganligi chet tili uchun, ayniqsa, muhimdir; ona tiliga nisbatan chet tili ishoralari uchun ham bu farq ancha ravshan ko'rindi.

So'nggi paytlarda chet tillarni o'qitish metodikasida og'zaki nutqni o'stirish uchun so'zlardan ancha katta bo'lgan birliklar – modellar tanlana boshlandi. Modellar aloqa jarayonida qatnashadigan leksik, fonetik va grammatik ko'rsatqichlar sintezidan iboratdir. Ularni tanlash va bularga muvofiq butun o'qish jarayonini tashkil etishning talay afzallikkari bor, chunki bu jarayon leksika, grammatika, fonetikani ilgarigidek alohida-alohida emas, balki hozirgi kun davr talabi asosida uzziy ravishda o'qitish imkonini beradi.

Chet tillarini o'qitish mazmuni leksik, grammatik va fonetik materiallarni bir butun uyg'unlikda; og'zaki nutq (speaking), o'qish (reading), yozuv (writing) va tinglab tushunish (listening) malaka va ko'nikmalarini; bu to'rt ko'nikmaga oid mavzularni, shuningdek, ona tilida bo'lgan hamda har bir chet tilida bo'lgan o'ziga xos til tushunchalarni o'z ichiga oladi. O'qitish mazmunining turli tarkibiy qismlarini tanlash bir xil darajada bo'lishiga erishish lozim. Leksik materialni hamda matnlarni tanlash, malaka va ko'nikmalar shuningdek, mudllarni yanada takomillashtirish masalalarini yanada mukammallashtirish lozimligini davr taqozo etmoqda. O'qitishning mazmunini belgilaganda, qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun ham tanlangan o'qitish maqsadining yetarlilikini, muayyan aniq shart-sharoitda uni o'quvchilarning bilib olishlarini, imkoniyatlarini nazarda tutish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gruzinskaya I.A. Metodika prepodavaniya angliyskogo yazika. M., 1989;
2. Sherbovskiy Z.Sh. Obucheniye ustnoy rechi i chteniyu na inostrannom yazike. M., 2002;
3. MIRZAYEVA M. R., MADATOVA M. DIALOGUE TRAINING AS ONE OF THE FORMS OF EFFECTIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES //E-Conference Globe. – 2021. – C. 244-249.
4. A.A.Булаховский Некоторые приемы развития устной речи. М., 2004.
5. Vodneva S.M. Fizkulturnie pauzi na urokakh inostrannogo yazika. M., 2001.
6. A.A.Bulaxovskiy Nekotorie priyemi razvitiya ustnoy rechi. M., 2004.